TASDIQLAYMAN
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
_____ I.Madatov
2023-yil 14-oktabr

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
2-bosqich Pedagogika yo‘nalishi talabalariga 3-semestr uchun
« Yunogogika » fanidan yakuniy nazorat savollari
Imtihon shakli: yozma-og‘zaki

Mavzu raqami	1-QISM “OSON SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning kirish qismidan asosan nazariy savollardan iborat bo’ladi	2-QISM “ODDIY SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 1-rejasidan asosan mulohazaviy savollardan iborat bo’ladi	3-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 2-rejasidan asosan qoidalar, teoremalar, kabi savollardan iborat bo’ladi	4-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR 2” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 3-rejasidan asosan tendensiyalar, paradigmalar, konsepsiyalar kabi savollardan iborat bo’ladi	5-QISM “QIYIN SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning xulosa yani yakuniy qismidan asosan talabani mustaqil fikrlashga, mavzuni to’liq anglashga yo’naltiradigan savollardan iborat bo’ladi
1	Yunogogika predmetiga ta’rif bering	Yunogogika fanining fanlar tizimida tutgan o‘rnini aniqlang va tushuntiring	Yunogogikaning fan sifatida rivojlanish bosqichlarini ayting	Yunogogikaning asosiy kategoriyalarini ta’riflang	Yunogogikaning asosiy kategoriyalaridan ikkinchi toifasini izohlang
1	Yunogogika nimani o‘rganadi?	Ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy-psixik holatlar, xususiyatlarga tushunchalar bering	Yunogogika fanining funksiyalari	Yoshlarni fuqarolik-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ishtirok etishni izohlang	Fan obekti - yoshlarga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan jarayonlarni o’rganish ekanligini izohlang
2	Tarixiy manbaalarda yoshlar masalalarining yoritilishi	Buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino o‘z davrining barcha bilim sohalarini qamrab oluvchi katta ilmiy merosi haqida	Markaziy Osiyo ma’rifatparvar olimlarining pedagogika fani rivojiga qo’shgan buyuk hissalarini ta’riflang	Uyg‘onish davrida ijtimoiy gumanizm g’oyalarining amalga oshirilishi mashhur italiyalik pedagog-gumanist Vitgorino de Genotre	“Inson xarakterini tuzishning yangi institugi”ning paydo bo’lish tarixini izohlang
2	«Avesto» - zardushtiylik dinining muqaddas kitobi	Mashxur olim Al-Xorazmiynng yorqin didaktik asarlari haqida ma’lumot bering	Shvesariyalik buyuk pedagog Iogann Genrix Pestalossining pedagogik nazariyasi	Kesariya shahrida paydo bo‘lgan tarbiya uylari haqida ma’lumot bering	"Istpedlar" tashkil etilishi haqida ma’lumot bering
3	“Individ” tushunchasi nimani ifoda etadi?	Shaxsning rivojlanishi tushunchasiga izoh bering	Shaxs rivojlanishiga doir zamonaviy yondashuvlarni izohlang.	Shaxs rivojlanishining gender xususiyatlari deganda nima tushuniladi?	XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi va uning namoyondalarini izohlang
3	Odamning shaxs sifatida shakllanishining asosini nima tashkil etadi	Shaxs rivojlanishiga qanday omillar ta’sir ko’rsatadi?	Shaxs rivojlanishining yosh davrlariga tavsif bering.	Pragmatizm oqimi va uning vakillari D.Dyui, A.Kombe ham shaxs rivojlanishinida biologik nuqtai nazari haqida ma’lumot bering	Ijtimoiy kompetentlik insondan ijtimoiy vaziyatlarga yo‘nalganlik va boshqarish qobiliyatini shakllantirish haqida ma’lumot bering
4	Tarbiyaning ijtimoiy muassasalardagi o‘rni haqida tushuncha bering	Tarbiya va o‘zbek tarbiyasiga ta’rif bering.	Tarbiya metodlari A.S.Marenkoning tasnifida	Ta’limning milliy modelida shaxs tarbiyasi haqida ma’lumot bering	Tarbiya jarayonida o‘quvchilarning o‘zlari tashabbus va g‘ayrat ko‘rsatishini izohlang
4	Yunogogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari haqida ma’lumot bering.	Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etishda umumnazariy metodlar haqida umumiy tushuncha bering.	Pedagogikaning hodisalarini o‘rganishdagi metofizik va dialektik yo‘nalishlar haqida ma’lumot bering.	Ilmiy tadqiqot metodlaridan pedagogik kuzatish metodi haqida fikrlaringizni bayon qiling.	Ilmiy tadqiqot metodlaridan suhbat metodi haqida fikrlaringizni bayon qiling.
4	Pedagogika o‘qitish, bilim berish, tarbiyalash jarayonlarini va ularning mohiyatini o‘rganishda nimalar nazarda tutiladi?	Pedagogik tadqiqot metodlari nazariy va amaliy (empirik) turlarga bo‘linishi haqida yozing.	Ilmiy tadqiqot metodlarning tavsifiga to‘xtalib o‘ting.	Ilmiy tadqiqot metodlaridan rasmlarni o‘rganish metodi haqida fikrlaringizni bayon qiling.	Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi suhbat metodi haqida fikrlaringizni bayon qiling.
4	Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda murakkab, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik jarayoni nimalardan iborat?	Ilmiy tadqiqot metodlariga qo‘yiladigan talablar haqida ma’lumot bering.	Bolalar ijodini o‘rganish metodi suhbat metodi haqida fikrlaringizni bayon qiling.	Eksperiment metodi haqida ma’lumot bering.	Anketa va kibernetika metodlari haqida fikrlaringizni bayon qiling.
4	Sotsilogik metod haqida tushuncha bering	Statistika ma’lumotlarini analiz va sintez qilish metodining ahamiyatini yoritib bering	Testlashtirish metodini izohlang	Pedagogikaning hodisalarini o‘rganishda dialektik yo‘nalishini izohlang	Yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi oldindan yo‘l qo‘yilgan nuqsonlarni bartaraf etish Korreksiya metodining o‘rni haqida ma’lumot bering
4	Ijtimoiy psixologik treningning asosiy metodlarini ta’riflang.	Pedagogik va psixologik treninglarni tashkil etish bosqichlariga to’xtalib o’ting.	Hozirgi jamiyatda ijtimoiy pedagog ishi nimalardan oborat?	Pedagogik mahoratda ko‘nikmalarning guruhlarga farqlanish tushunchasiga izoh bering.	Ijtimoiy pedagogik faoliyatning mazmuni haqida ma’lumot bering.
5	Yoshlar siyosatining ustuvor masalalari haqida ma’lumot bering.	Davlat maktablarida direktorning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari lavozim majburiyatlari haqida yozing.	“Besh muhim tashabbus”ning beshinchi tashabbusi haqida yozing.	“Besh muhim tashabbus” loyihasi haqida ma’lumot bering.	Yoshlar bilan ishlash tashkilotchisining umumiy tushunchalari
5	Yoshlar bilan ishlash tashkilotchisining ijtimoiy-pedagogik faoliyati haqida	Yoshlar tashkiloti yetakchisining pedagogik faoliyati haqida to’xtalib o’ting.	“Besh muhim tashabbus”ning ikkinchi tashabbusi haqida yozing.	“Besh muhim tashabbus”ning birinchi tashabbusi haqida yozing.	O‘zbekistonda yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlariga to‘xtalib o‘ting.
5	Ijtimoiy kompetentlik tushunchasini mazmuni haqida ma’lumot bering.	Bitiruvchilarning 5 ta muhim kompetensiyalariga ta’rif bering.	Buyuk rus pedagogi Y.A.Komenskiy “kompetentlilik” tushunchalari haqida ma’lumot bering.	N.V.Kuzminaning pedagogik tashxislash izchilligi haqida ma’lumot bering.	O‘zbekiston pedagog olimlarining “Kompetensiya”ga doir ilmiy-nazariy qarashlari haqida ma’lumot bering.
5	“Kompetensiya” va “kompetentlilik” tushunchalarini izohlang.	G.P.Shedroviskiyning “kompetentlilik” tushunchalari haqida ma’lumot bering.	Kasbiy kompetentlik namoyon bo’lishining asosiy omillari haqida	Ijtimoiy va maxsus kompetentlik tushunchalarini farqlab, izoh yozing. Misollar keltiring.	Bo‘lajak pedagog-o‘qituvchilarda ijtimoiy rivojlantirishning tamoyillari bosqichlari haqida yozing.
6	Ijtimoiy o‘z-o‘zini anglashga pedagogik yondashuv haqida ma’lumot bering.	Milliy o‘zlikni anglashning asosiy tamoyillarini izohlab yozing.	O‘z-o‘zini anglashda G’arb olimlarining ilmiy-nazariy qarashlari haqida ma’lumot bering.	Xulq-atvor namoyon bo‘lishida shaxsning ob’ektiv fazilatlari haqida yozing.	Volf Salomonovich Merlinning "Real-men" va "ideal-men" nisbatini izohlang.

6	Yunogogika fanida o‘z-o‘zini anglash strukturasi haqida	O‘z-o‘zini anglashda diniy tushuncha va qarashlarninh ahamiyatiga to’xtaling.	Yoshlar ijtimoiy o‘z-o‘zini anglash darajalari bosqichlari haqida ma’lumot bering.	O‘z-o‘zini anglash muammosi va bunda pedagogic yondashuv haqida tushunchalaringizni bayon qiling.	Gender identifikatsiyasi tushunchasini izohlab, ma’lumot bering.
6	Inson kamolotida oilaviy munosabatlarning psixologik shart-sharoitlari	Milliy tarbiyani shakllantirishning muhim vositalari haqida tushunchalaringizni izohlang.	Oilada axloqiy, psixologik munosabatlarning to’g’ri shakllanishi tamoyillari haqida ma’lumot bering.	Oilaning ijtimoiy maqomi haqida psixolog olim V.M.Karimovaning nazariy qarashlarini izohlang.	Oilada bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda Sharq allomalarining fikrlari haqida ma’lumot bering.
6	Ota-onaning shaxsiy namuna ko‘rsatishi bolalar tarbiyasiga ta’siri haqida tushunchalaringizni misollar orqali izohlang.	Tarbiyaning to’g’ri shakllanishida diniy qarash va tushunchalarning o’rni haqida ma’lumot bering.	Oilada bolalar bilan muloqotni yo‘lga qo‘yishda yoshga alohida ahamiyat qaratish zarurati, pedagogik-psixologik jihatlar	Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash borasida o’zbek olimlarining ilmiy nazariyalariga ta’rif bering.	Jadidlarning ijtimoiy tarbiyaning jamiyatda tutgan o’rni va ahamiyati haqidagi fikrlarini keltiring, izohlang.
6	Yoshlarni har tomonlama rivojlanishida pedagogika va psixologiya fanlarining o‘rni.	Yoshlarda zamonaviy ijtimoiy kompetentsiyani rivojlantirishda tizimli va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar	Yoshlarda zamonaviy ijtimoiy kompetentsiyani rivojlantirishda *aksiologik* va *shaxsga* yo‘naltirilgan yondashuvlar	Yoshlarni kasbiy, hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirib borish haqida yozing.	Yoshlarni bo‘sh vaqtini maqsadli tashkil etishda ilm-fan, sport, san’at, til o‘rganish, AKT

7	Deviant xulq – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida.	O’smirlarning deviant xulq-atvori sabablari haqida yozing.	O‘smirning qiyin tarbiyalanishi haqida tushunchalaringizni bayon qiling.	Bolalar va o‘smirlar dezadaptatsiyasi haqida yozing.	Me’yordan chetga chiquvchi xulq-atvor ijtimoiy dezadaptatsiya ko‘rinishlari haqida ma’lumot bering.
7	Deviant xulq-atvorli bolalar bilan ijtimoiy-pedagogik amaliyot yuritish nimalardan iborat?	Deviatsiya kontseptsiyasida reabilitatsiya, profilaktika va korreksiya masalalari	O‘quvchi xulq-atvori doimo normal holatda bo’lishining asosiy omillari haqida yozing.	Deviant xulq-atvorning yorqin namoyon bo‘lishiga nimalar kiradi?	Delikvent xulq-atvorning qanday turlari mavjud va ularni izohlang.
7	Uyushmagan yoshlar bilan ishlash ijtimoiy muammo sifatida.	Yosh avlodning fuqarolik pozitsiyasi va faolligini kuchaytirishga nimalar kiradi?	Uyushmagan yoshlarda o‘z maqsadini davlat va jamiyat manfaati bilan uyg‘unlashtirish muammosi va yechimi haqida fikr bildiring.	Uyushmagan yoshlarning ijtimoiy faolligi, siyosiy, huquqiy ong va madaniyat darajasini oshirish haqida yozing.	Ta’lim jarayonlarida uyushmagan yoshlarda salbiy ta’sirlarga, shu jumladan «ommaviy madaniyat» va yot g‘oyalar ta’siriga beriluvchanligini oldini olish omillari.
7	Yoshlarni tashqi tahdidlar va “ommaviy madaniyat”ning zararli ta’siridan muhofaza qilish muammolari haqida yozing.	Uyushmagan yoshlar kim va bu haqida tushunchalaringizni bayon qiling.	Ijtimoiy himoya va jamoatchilik nazorati orqali uyushmagan yoshlar intellektualini oshirish masalasi haqida yozing.	Uyushmagan yoshlar bilan pedagogik ish xususida asosiy vazifalarni bayon qiling.	Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda «yoshlar» tushunchasi
8	Prezident islohotlari: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta’lim tizimiga oid qanday islohotlari mavjud?	Kasbga yo‘naltirish: O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish jarayoni qanday bosqichlarni o‘z ichiga oladi?	Ta’lim va iqtisodiyot: Ta’lim tizimini bozor iqtisodiyotiga moslashtirishning afzallik va kamchiliklarini muhokama qiling.	Ma’naviy-ma’rifiy konsepsiya: 2022-yilda tasdiqlangan ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi qanday asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi?	Pedagogik yondashuvlar: Yuqori sinf o‘quvchilari bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ishlarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
8	Ma’naviy immunitet: O‘quvchilarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash nega muhim?	Maktab va jamiyat hamkorligi: Maktab, mahalla va oila hamkorligini mustahkamlash uchun qanday choralar belgilangan?.	Tarbiyaviy tadbirlar: O‘quvchilar qalbida milliy qadriyatlarni shakllantirish uchun qanday zamonaviy tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazish mumkin?	Oliy ta’lim bilan bog‘liqlik: Prezident tashabbuslari natijasida qaysi xorijiy universitetlar O‘zbekistonda filial ochgan va bu oliy ta’lim tizimiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?	Kitobxonlik madaniyati: O‘quvchilar orasida kitobxonlikni rivojlantirish uchun qanday muhim tashabbuslar belgilangan?
8	Kasb-hunar ta’limi: Kasb-hunar ta’limining rivojlanishiga hukumat tomonidan qanday e’tibor qaratilgan?	Kasbga yo‘naltirish: Kasb-hunar maktabi o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishda qanday afzalliklar mavjud?	Mustaqil ta’lim va zamonaviy dunyo: Mustaqil ta’lim olgan shaxsning bugungi globallashgan jamiyatda o‘z o‘rnini topishi qanday kechadi?	Xorijiy tajriba: Xorijiy davlatlarning ta’lim tizimida loyihaviy usul qanday muvaffaqiyatli qo‘llanmoqda?	O‘quvchilarning qiziqishi: O‘quvchilar qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirishda guruh sardorining roli qanday?
8	Mustaqil ta’lim: Mustaqil ta’limning asosiy maqsadi nima?	idaktik materiallar: Fan darsliklari uchun didaktik materiallarni tanlashda qanday tamoyillar muhim?	Jamoaviy ta’lim samaradorligi: O‘quvchilarning kichik guruhlarda ishlashi ta’lim jarayoniga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatadi?	Ijtimoiy pedagogikaning dolzarbligi: Nima uchun kasb-hunar maktabi o‘quvchilarini ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash pedagogik muammo sifatida qaraladi?	O‘quvchining kasbiy mas’uliyati: Kasb-hunar maktabi o‘quvchilarida kasbiy mas’uliyatni shakllantirish qanday yo‘llar bilan amalga oshiriladi?
9	Yosh oila: Yosh oila deb qanday oilaga aytiladi?	Oilaviy muammolar: Yosh oilalar duch keladigan asosiy iqtisodiy va psixologik muammolar nimalardan iborat?	Oilaviy barqarorlik: Yosh oilaning mustahkamligi nimalarga bog‘liq va uni qanday saqlab qolish mumkin?	Nikoholdi tibbiy ko‘rik: Nikoholdi tibbiy ko‘rikning jamiyat va oilalar barqarorligiga ta’siri qanday namoyon bo‘ladi?	Sog‘lom farzand tarbiyasi: Yosh oilada sog‘lom farzand tarbiyalash uchun qanday asosiy omillarga e’tibor berish lozim?
9	Nikoh yoshi: Dunyoning turli mamlakatlarida nikoh yoshining o‘zgarishi qanday omillar bilan bog‘liq?	Sog‘lom turmush tarzi: Yosh oilalar uchun sog‘lom turmush tarzining ahamiyati nimada?	Jamiyat va yosh oila: Hukumat tomonidan yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar qanday ijtimoiy natijalar berishi mumkin?.	Psixologik moslashuv: Kelin-kuyovning yangi oilaviy hayotga moslashish jarayonida qanday psixologik qiyinchiliklar kuzatiladi va ularni qanday yengish mumkin?	Media va sog‘lom turmush tarzi: Ommaviy axborot vositalari sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda qanday rol o’ynaydi?
9	O‘zini o’zi boshqarish organlari nima va ularning asosiy vazifalari nimalardan iborat?	O‘zini o‘zi boshqarish organlari qanday yo‘llar bilan yoshlar bandligini ta’minlashga yordam beradi?	Yoshlar yetakchilari ishsiz yoshlarning bandligini ta’minlash uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshiradi?	Yoshlar uchun o‘zini o‘zi boshqarish organlari qanday dasturlar va tashabbuslarni amalga oshiradi?	"Yoshlar daftari jamg‘armasi" va "Yoshlar portali" yoshlarni qanday qo‘llab-quvvatlaydi?
9	Yoshlarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida ishtirok etishi qanday afzalliklarga ega?	Mahallalarda yoshlar yetakchilari lavozimi joriy etilishining maqsadi nima edi?	O‘zini o‘zi boshqarish organlari orqali yoshlar qanday kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishlari mumkin?	Yoshlar bandligini oshirishda davlat siyosati qanday rol o‘ynaydi?	O‘zini o‘zi boshqarish organlari mahalliy korxonalar va davlat tashkilotlari bilan qanday hamkorlik qiladi?
10	Yoshlarni ijtimoiy pedagogik qo‘llab-quvvatlashning asosiy maqsadi nima?	Ijtimoiy pedagogik qo‘llab-quvvatlash jarayonida yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatiladi?	Tashkilotchi yoshlar uchun qanday ijtimoiy-psixologik resurslar mavjud?	Yoshlarni ijtimoiy pedagogik qo‘llab-quvvatlashda jamiyatning faolligi qanday aks etadi?	Yoshlarni ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun qanday tashabbuslar ishlab chiqilishi kerak?
10	Lider va tashkilotchi yoshlarning ijtimoiy hayotga integratsiyasini qanday ta’minlash mumkin?	Yoshlarning jamiyatdagi muammolarni hal qilishda lider sifatida faoliyat yuritishlari uchun qanday ko‘nikmalar zarur?	Ijtimoiy pedagogik qo‘llab-quvvatlashda ota-onalarning roli qanday ahamiyatga ega?	Ijtimoiy pedagogik qo‘llab-quvvatlashda muammoli oilalardan chiqqan yoshlarni qanday qo‘llab-quvvatlash mumkin?	Tashkilotchi va lider yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarga qanday hissa qo‘shishlari mumkin?
10	Yoshlar uchun ijtimoiy xizmatlarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?	Ijtimoiy xizmatlar tizimida yoshlarning rivojlanishiga qanday pedagogik ta'sir ko'rsatiladi?	Yoshlar uchun ijtimoiy xizmatlarning pedagogik jihatlari qanday ko'rinadi?.	Yoshlar bilan ishlashda ularning shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlarini qanday hisobga olish kerak?	Yoshlar uchun ijtimoiy xizmatlar bilan bog'liq pedagogik tizimlarni yaratishda qanday yondashuvlar samarali bo'lishi mumkin?
10	Pedagogik yondashuvning yoshlar bilan ishlashdagi roli qanday?	Yoshlar bilan ishlashda pedagogik ko'nikmalar qanday shakllanadi?	Ijtimoiy xizmatlar tizimida yoshlarning muammolarini hal qilish uchun pedagogik yondashuv qanday ishlatiladi?	Ijtimoiy xizmatlar tizimida yoshlarni qo'llab-quvvatlashning pedagogik strategiyalari nimalardan iborat?	Yoshlar bilan ijtimoiy xizmatlar orqali samarali pedagogik ishlashda qanday metodlar qo'llaniladi?